

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ПЕДАГОГИКА КАФЕДРАСИ**

**“ТАЛАБАЛАР МАЪНАВИЯТИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН  
МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ:  
МУАММО ВА ЕЧИМЛАР”**

**ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТЛАР ИШТИРОКИДА  
РЕСПУБЛИКА МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**



Бухоро 2020

<b>АСАДУЛЛАЕВ А.Н.</b> Формирование компетентности учителя безопасности жизнедеятельности	экологической	<b>287</b>
<b>ИБРАГИМОВ М.Б.</b> Футболчиларни йиллик циклда тайёрлашда машгулот юкламаларини режсалаштириши		<b>291</b>
<b>ИБРАГИМОВ М.Б., С.ТҮРДАЕВ</b> Футболчиларни йиллик циклда тайёрлашда таъсир қилувчи омиллар		<b>293</b>
<b>ДАВРОНОВ Н.И.</b> Ёшларда жисмоний сифатларни ривожлантиришга қадриятли ёндашув		<b>297</b>
<b>КОБИЛЖОНОВ Қ.Қ.</b> Зардуштийлик таълимотида ёшларнинг жисмоний тарбия масалалари талқини		<b>299</b>
<b>TURKMENOV F.N.</b> Talabalarda sog'lom turmush tarziga intilishnishakllantirish		<b>302</b>
<b>ТУРКМЕНОВ Ф.Н.</b> Ўқувчи ва талаба ёшларни спортга жалб қилишга қаратилган узлуксиз спорт мусобақалар тизимини бошкариш таҳлили		<b>304</b>
<b>ҲОМИДОВ Ҳ.Қ.</b> Талабаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда “ёшлар иттифоқи” ташкилотининг ўрни		<b>307</b>
<b>АҚҚИЕВА Х.Н.</b> Математика дарсларида ўқувчи фаоллигини оширишга йўналтирилган технологияларни қўллашнинг методик асослари		<b>311</b>
<b>YARASHEV J.T.</b> Musiqa madaniyati darslarida o'zbek halq kuy-qo'spiqlarining o'rni		<b>314</b>
<b>KAMOLOV SH.X., RAYIMOVA G.</b> Inson ruhiyatida musiqaning o'rni.		<b>316</b>
<b>УМУРОВА М.Ё.</b> Аждодлар меросида мусиқа ва руҳият талқини		<b>317</b>
<b>МУХИДОВА О.Н., АЛЕКСЕЕВА Н.Н.</b> . Инновационные способы выбора и направления студентов к профессии		<b>322</b>
<b>AZIMOV Y.Y.</b> Kitob o'qish madaniyatini shakllantirishga doir ayrim mulohazalar		<b>325</b>
<b>RAJABOVA I.H.</b> Xotin-qizlar salomatligi va turmush madaniyatini yaxshilashda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati		<b>329</b>
<b>HAMROYEVA N.A.</b> «O'zbegin» she'rining yuksak badiiy xususiyatlarini o'rgatish orqali yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish		<b>330</b>
<b>ERGASHEVA G.B.</b> Xalq milliy o'yinlari inson kamoloti va yoshlar tarbiyasida muhim omil siaftida		<b>333</b>
<b>NIYAZOVA S.D.</b> Jismoniy barkamollikka erishish - sog'lom kelajakni yaratish garovi		<b>336</b>
<b>NIZOMOVA SH.SH.</b> Xotin-qizlar jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlarning o'rni		<b>337</b>
<b>RAHMONOVA G.SH.</b> Qudratli yurt xotin-qizlarining sportdagi o'rni		<b>341</b>
<b>SHARIPOVA M.B.</b> O'zbek ayoli obrazining badiiy ifodasi ("Alpomish" dostoni misolida)		<b>343</b>
<b>JABBOROV B.I., TOSHPULATOVA N.I.</b> Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar.		<b>345</b>

# XALQ MILLIY O'YINLARI INSON KAMOLOTI VA YOSHLAR TARBIYASIDA MUHIM OMIL SIAFTIDA

*G.B.Ergasheva*

*Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

Xalq milliy o'yinlari qadriyatlar timsoli sanaladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz azal-azaldan insonni jismonan chiniqtiruvchi, salomatlikka ijobiy tasir etuvchi mashqlarga jiddiy e'tibor qaratishganini ko'ramiz. Masalan, ko'pkari musobaqasi har bir ishtirokchidan chavandozlik mahoratidan tashqari jismoniy kuch, o'tkir zehn va yetti o'lchab bir kesish salohiyatiga ega bo'lishni talab qiladi. Ajdodlarimiz shunga mos ravishda tayyorgarlik ko'rib, ham ruhiy, ham jismoniy o'sishga erishganlar. Umuman olganda, milliy sport turlarining barchasi ota-bobolarimizning yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda rivojlangan. O'sha kezlarda kimdir chavandoz, kimdir qilichboz, yana kimdir mengan sifatida tanilgan. Shuningdek, turli o'yinlar va mashqlar tufayli ajdodlarimizda har qanday holatdan olib chiqadigan chaqqonlik, yakkama-yakka olishuvga xos o'quv shakllangan.

Bu o'yinlar, ayniqsa, bolalar orasida keng yoyilgan. Xususan, mahallalarda o'tkazilayotgan turli tadbirlarda aksariyat bolalar "Oq terakmi, ko'k terak", "Podachi", "Charxpalak", "O'rda to'p", "Quvlashmachoq" kabi o'yinlarda o'zaro bellashib, kim epchil-u, kim chaqqonligini aniqlab oladilar. Shuningdek, "Uzuk olish", "Poyondoz", "Sultonchalar jangi", "Ignal, ip, angishvona" singari xalq o'yinlari ham yillar osha bizgacha yetib kelgan. Mazkur o'yinlar ishtirokchilariga sinchiklab qarasangiz, har birida abjirlik, murakkab holatni to'g'ri baholash, qiyin vaziyatdan chiqib ketish xususiyatlari qaror topganiga amin bo'lasiz. Shundan

xulosa qilish mumkinki, milliy sport turlari va xalq o'yinlari yoshlarni sog'lom voyaga yetkazish, ularga ta'lim-tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyat va urchodatlarni asrab-avaylashda ularning o'rni beqiyos.

Yoshlarni jismoniy tarbiyalashda ayrim majburiy mashqlar o'rniga milliy xalq o'yinlari, raqslari, jismoniy mashqlari va milliy sport turlarini saralab olish, ularning hajmi, yo'nalishi va ta'sirchanligini belgilashda A.Navoyning "Mahbub ul-qulub", "Farhod va Shirin", U.Hayomning "Navro'znama", Ibn Sinoning "Al-Qonun", Kaykovusning "Qobusnama", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonii lug'ati turk" asarlari ajoyib manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalq o'yinlarini o'rganish, tadqiq qilish va uni yoshlarni tarbiyalash amaliyotiga joriy qilish, o'z qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va ma'naviy boyliklarimizning yuksaklikka ko'tarishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Xalq milliy o'yinlari milliy qadriyatlar tarkibidagi xalqning eng sevimli ommaviy ma'naviy tadbirlaridan biridir. «Navro'z», hayit, to'ylar va turli xil an'anaviy marosimlar, udumlar qadimdan kurashsiz, ko'pkarisiz (uloq), poygasiz va boshqa ko'p milliy o'yinlarisiz o'tmagan. Bunday tadbirlar xalq og'zaki ijodining barcha turlarida, dostonlarda ifoda etilgan. Ular ulug' allomalar Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va undan keyingi o'tgan adiblar, shoirlaming asarlarida qiziqarli hamda to'la bayon etilgan. Yaqin o'tmishda va ayniqsa, mustaqillik yillari davrida xalq milliy o'yinlarini o'rganish va ularni qayta tiklash bilan o'quvchi yoshlarning ma'naviy hamda jismoniy kamolotlarini tarbiyalashda ulardan maqsadli foydalanish amalga oshirildi. Bu yo'lda madaniyat va san'at arboblari, taniqli olimlar M.Murodov, U.Qoraboyev, T.S.Usmonxo'jayev, J.Toshpo'latov, R.Abdumalikov, F.N.Nasriddinov kabilaming xizmatlari g'oyat katta bo'ldi.

Bir necha milliy o'yinlarimiz etnografik ahamiyatga ega hisoblanadi. «Ayiq o'yini», «Dev o'yini», «Maymun o'yini», so'ngra «Pishiq o'yin», «Ot o'yini», «Yumronqoziq o'yini», «Echki o'yini», «Bo'ri o'yini», «Kaltak o'yini», «Burgut o'yini», «It o'yini (irillatar o'yini)», «Quyon o'yini», «Tulki o'yini», «Jak-jaku o'yini» qabi ko'pgina o'yinlar, pantomimalari avloddan-avlodga o'tib kelayotgani ma'lum. Ular bevosita yohud bilvosita bolalar folklor o'yinlariga aloqadordir. Shu tariqa «o'yin» so'zi turkiy xalqlarning o'ynamoq so'zi bilan bog'liq holda (uy, aql, hiqmat ma'nolarini beradi). Aql fahmni, harakat va imoshoralar vositasida ifoda etmoqlik esa o'yinlarning dunyoga kelishida muhimdir.

O'zbek an'anaviy bolalar folklor o'yinlarining mavzu qamrovi va ijro uslublari juda keng. Ijtimoiy hayat, kishilar munosabatlarining biron-bir jabhasi yo'qli, ular o'yinlar nazariga tushmagan bo'lsin. Xalqimizning dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, polizchilik madaniyati deysizmi, kasb-hunar va ilm-bilim sohasi deysizmi, falsafiy, estetik, axloqiy yohud ta'lim-tarbiya, axloq-odob

bobidagi qarashlari deysizmi- barchasi an'anaviy o'yinlarga mavzudir. Xususan, o'zbek bolalar folklor o'yinlari boshdan-oyoq ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy tushunchalar bilan yo'g'rilgan. Ularni quyidagi asosiy guruuhlaiga ajratish mumkin, ya'ni:

1. Kurashchilar (Buxoroga, Farg'onaga, Xorazmga va h.k.).
2. Ot o'yinlari (ko'pkari-uloq, poyga (yayov), qiz quvmoq, otdan ag'darish, chovg'on va h.k.).
3. Dorboz (dor ustidagi mashqlar, hazil va aytishuvlar).
4. Tosh (gir) ko'tarish.
5. Arqon tortishish.
6. Bilak kuchini sinash.
7. Harakatli o'yinlar (qulqoq cho'zma, eshak mindi, yelkada kurash, xo'rozlar jangi, chillik, poda to'p va h.k.).

Bunday o'yinlarning deyarli barchasi hoziigi davrdagi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llanmoqda. Ularning mazmunlari xalqqa ma'lum. Shuningdek, ular ko'plab o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar ilmiy ommabop risolalaiga ham kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Toshkent va boshqa viloyatlaming tog'li hududlari va yangi o'zlashtirilgan joylarida bo'layotgan katta to'ylarda kurash, ko'pkari-uloq, poyga va turli xil harakatli o'yinlar doimiy ravishda qo'llanilmoqda. Bu o'yinlar to'ylaiga fayz, baraka kiritish bilan biigalikda tomoshabinlar olqishiga sazovor boimoqda, ayniqsa, o'quvchi yoshlamning milliy o'yinlar, zamonaviy sport turiga qiziqishini tobora oshirmoqda.

Respublika hukumatining roziligidagi va sport tashkilotlarining taklifi bilan alpomish o'yinlari olimpiadasini har ikki yilda o'tkazishga kelishildi. «Alpomish» dostonining yaratilishiga 1000 yil to'lishini nishonlashga bag'ishlab Termizda («Alpomish vatani») xalq milliy o'yinlari, «Alpomish o'yinlari respublika festivali» o'tkazildi. Xalq milliy o'yinlari Respublika musobaqalari, «Alpomish» o'yinlari respublika festivallari dasturlarida kurash, otda poyga, ko'pkari(uloq), «Bo'ron», Arqon tortishish, bilak kuchini sinash, «Mindi», qirq tosh (qizlar o'yini) va boshqa harakatli o'yinlar bor edi. O'yinlar va festivallaming ochilishi va yakunlarida mahalliy havaskor san'atkorlar, respublikaning taniqli san'atkorlari, shoirlar, madaniyat arboblari, turli sohadagi adiblar ishtiroy etib, u katta bayram tariqasida o'tkazilib kelinmoqda.

Turli xil sakrashlar, yugurishlar va bajarish qiyin bo'lgan gimnastika mashqlari o'rniga qizlaiga milliy harakatli o'yinlami darslarda o'rgatib borilsa, ularning jismoniy kamolotini o'stirishda muhim tadbirlardan biri bo'lish mumkin. Shuningdek, oila va bolalar bog'chalarida sevimli harakatli o'yinlar va

mashg'ulotlar tarkibida milliy harakatli o'yinlardan foydalanishni yo'lga qo'yilsa, yaxshi boladi.

Xulosa shundaki, xalq milliy o'yinlari inson kamoloti va yoshlar tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan, o'quvchi yoshlarga xalq milliy o'yinlarining ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlarini chuqurroq singdirish zarurdir. Milliy sport turlari va xalq o'yinlari o'ziga xos qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga o'tib boradi. Ularni ardoqlagan yoshlar qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usi qaror topadi, milliy ruh shakllanib, xalqimizning an'ana va urf-odatlarini e'zozlash hissi yanada kuchayadi. Milliy o'yinlar yoshlarni o'zbekona tarbiyalashning eng ta'sirchan vositalaridan biridir. Bu o'yinlar qanchalik keng yoyilsa, vatanparvar yoshlar safi shunchalik kengayadi.